

Ogahiy's Heritage – A Spiritual Treasure for the Present Generation

Tashkent State University of Oriental Studies

Institute of Oriental Peoples' Languages and Literature

First-year student **Baxtiyorova Madina, daughter of Jasur**

Annotation: This article analyzes the rich literary, historical, and pedagogical heritage of Muhammad Rizo Erniyozbek oglu Ogahi, a prominent representative of the nineteenth-century Khorezm literary environment. It highlights his views on humanism, enlightenment, morality, devotion to the people, and the upbringing of a well-rounded individual. The article also examines Ogahi's translation activity and his contribution to the development of Uzbek classical literature. The study emphasizes the importance of Ogahi's legacy in the spiritual and moral education of the present generation.

Keywords: Ogahi, Uzbek classical literature, Khorezm literary environment, spiritual heritage, enlightenment, morality, translation activity, pedagogical views.

Ogahiy merosi - bugungi avlod uchun ma'naviy xazina

Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti

Sharq xalqlari tillari va adabiyoti instituti

1-kurs talabasi **Baxtiyorova Madina Jasur qizi**

Annotatsiya: Ushbu maqolada XIX asr Xorazm adabiy muhitining yirik namoyandasi Muhammad Rizo Erniyozbek o'g'li Ogahiyning boy adabiy, tarixiy va pedagogik merosi tahlil etiladi. Unda shoirning insonparvarlik, ilm-ma'rifat, axloq-odob, xalqparvarlik va komil inson tarbiyasi haqidagi qarashlari yoritilgan. Shuningdek, Ogahiyning tarjimonlik faoliyati va uning o'zbek mumtoz adabiyoti rivojidadagi o'rni ochib beriladi. Maqola Ogahiy merosining bugungi avlod ma'naviy tarbiyasidagi ahamiyatini ko'rsatishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: Ogahiy, o'zbek mumtoz adabiyoti, Xorazm adabiy muhiti, ma'naviy meros, ilm-ma'rifat, axloq-odob, tarjimonlik, pedagogik qarashlari

Аннотация: В статье рассматривается богатое литературное, историческое и педагогическое наследие Мухаммада Ризы Эрнийзбек оглы Огахи — выдающегося представителя хорезмской литературной среды XIX века. Освещаются его идеи гуманизма, просвещения, нравственности, служения народу и воспитания совершенной личности. Особое внимание уделяется переводческой деятельности Огахи и его роли в развитии узбекской классической литературы.

Статья раскрывает значение наследия Огахи в духовно-нравственном воспитании современного поколения.

Ключевые слова: Огахи, узбекская классическая литература, хорезмская литературная среда, духовное наследие, просвещение, нравственность, переводческая деятельность, педагогические взгляды.

O'zbek mumtoz adabiyotining yirik namoyandalaridan biri Muhammad Rizo Erniyozbek o'g'li Ogahiy XIX asr Xorazm adabiy muhitida muhim o'rin egallaydi. U nafaqat iste'dodli shoir, balki tarixchi, tarjimon va ma'rifatparvar sifatida ham xalqimiz ma'naviy merosini boyitgan buyuk siymodir. Ogahiy qoldirgan boy adabiy va ilmiy meros bugungi avlod uchun bebaho ma'naviy xazina hisoblanadi. Ogahiy ijodining markazida inson, uning axloqi, komilligi va jamiyatdagi o'rni masalalari turadi. Shoir g'azal va qasidalarini orqali halollik, adolat, ilmga intilish, sabr-toqat va vatanparvarlik kabi yuksak fazilatlarni targ'ib etadi. Uning asarlarida ilgari surilgan bu g'oyalar bugungi yoshlarni ma'naviy jihatdan tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ogahiy merosining yana bir muhim jihati, uning tarixiy asarlaridir. U Xiva xonligi tarixiga oid bir qator muhim asarlarni yozib, o'z davrining siyosiy, ijtimoiy va madaniy hayotini haqqoniy yoritib bergan. Bu asarlar bugungi kunda tarixchilar va tadqiqotchilar uchun ishonchli manba bo'lib xizmat qiladi hamda yosh avlodni o'z tarixini bilishga undaydi.

Ogahiy o'z ijodiy faoliyati davomida Sa'diy Sheroziyning «Guliston», Xisrav Dehlaviyning «Hasht bihsht», Abdurahmon Jomiyning «Bahoriston», Kaykovusning «Qobusnoma», Xusayn Voiz Koshifiyning «Axloqi Muhsiniy» asarlarini o'zbek tiliga tarjima qiladi, o'z millatini Sharq adabiyotining nodir durdonalari bilan bahramand etadi. U o'z davrida taniqli mutafakkir, olim, mohir hattot, tarjimon sifatida shuhrat qozonadi, ilg'or dunyoqarashi bilan ilg'or fikrning rivojiga o'z hissasini qo'shadi.

Ogahiyning xalqparvarlik g'oyalari. Ogahiy xalqqa yaxshilik qilishni o'zining insoniy burchi deb biladi. Ogahiyning fikricha, oddiy xalqqa xizmat qilish ma'naviy qashshoqlanishning oldini oluvchi choradir. Xalqqa xolis xizmat qilgan kishining martabasi baland, elda quyoshdek aziz bo'ladi. Bu g'oya Ogahiy pedagogik qarashlarining asosiy mazmunini tashkil etadi. Inson ma'lum bir jamiyatda hayot kechirib, tarbiyalanar ekan, shu jamiyat a'zolari bilan muloqotda yashamog'i kerak.

Ogahiy inson kamoloti haqida. Ogahiy insonning kamolga yetishishi uchun yoshligidan ilm va kasb hunar egallashi shart ekanligini ta'kidlaydi. Uningcha, ilm-ma'rifat insonning ma'naviy kamolotida va jamiyat taraqqiyotida kuchli vositadir, ilmlarni egallash har bir musulmon uchun ham qarz, ham farz. Inson qadr-qimmatini uning «simmu zari» (oltin va kumushi) bilan emas, ilmu hunari, «ojizu bechoralar»ga

ko'rsatadigan himmati bilan baholanadi. Ogahiy odamlarni shunday fazilat sohibi bo'lishga da'vat etadi. Ogahiy ilmga intilishni yuqori baholaydi va har bir inson ilmlarni egallashi zarurligini aytadi.

Ogahiy ta'lim-tarbiya haqida. Ogahiy ta'lim-tarbiya ilmlarni egallash va tilni bilishda muhim ahamiyatga molik ekanligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, til insonni boshqa mavjudotdan farq qilib turadigan asosiy belgidir, so'z va til «takallum» qilishga, «fasohat va nafosatga», «ko'ngil mahzanidan javohir sochish» uchun berilgandir. Ogahiyning uqtirishicha, inson bilan tabiat o'rtasidagi uyg'unlik, tabiat go'zalligi inson tafakkuri ma'naviy dunyosi rivojida g'oyat muhimdir. Ogahiyning pedagogik qarashlarida nafosat tarbiyasi ham yuqori baholanadi. Ogahiy nafosat tarbiyasini Vatan tabiati, uning go'zalligi bilan bog'liq holda amalga oshirishni tavsiya etadi. Ogahiy mehmondo'stlik go'zal fazilat ekanligini aytib, yoshlarning mehmon kutish, unga hurmat, xushmuomalada bo'lish, kuzatish odobini egallashlariga e'tibor berishni, ularga mehmondo'stlik odobining mohiyatini tushuntirishni tavsiya etadi. Ogahiyning fikricha, to'g'ri so'z kishilar xayotda qiyinchilik bilan yashasalar-da, dunyoning mavjudligini saqlab turadilar, mangu yashaydilar.

Ogahiy pedagogik qarashlarining ahamiyati. Muhammad Rizo Ogahiy o'z ijodiy faoliyatida insoniy eng yaxshi fazilatlarini, ilm o'rganib jamiyat farvonligi yo'lida xizmat qilish insoniylikning eng yaxshi fazilati hisoblanadi. U do'stlikni, mehmondo'stlikni, axloqiy go'zallikni ulug'laydi. Insonlarni ziyraklikka, to'g'ri so'zli bo'lishga chorlaydi. Uning bu fikr, o'g'itlari hozir ham pedagogik qadriyat sifatida qimmatlidir. Sa'diy Sheroziyning «Guliston», Xisrav Dehlaviyning «Hasht bihsht», Abdurahmon Jomiyning «Bahoriston», Kaykovusning «Qobusnoma», Xusayn Voiz Koshifiyning «Axloqi Muhsiniy» asarlari o'zbek tiliga tarjima qilindi. Uning she'rlari o'zbek va tojik tillarida jilo sohib, insoniylikni, ikkiyuzlamachikni qoralagan. Ayniqsa, Ogahiyning «Sevishganlar tumori» devoni yuksak insoniy his-tuyg'ulari haqida ifodalangan. Ogahiy Nizomiy Ganjaviy, Xisrav Dehlaviy, Sa'diy Sheroziy, Jomiy, Hiloliy va boshqa shoirlar she'r va asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilgan. Ogahiy tarjimonlik sohasini piri bo'lgan. Uning tarjimonlik tartib qoidasi bizning zamonamizdagi badiiy asar tarjimonlariga yaqin. Tarjimonlar, ikki tilda so'zlashuvchi, o'zaro bog'lanishlar va o'zaro ta'sirlar adabiyotshunoslikning murakkab jarayoni sanaladi. O'zbek adabiyoti bu davrga kelib tojik, azarbayjon, turkman va boshqa adabiyotlar bilan boyitildi. Firdavsiyning «Shohnoma»si, Bedil she'riyatini oshirish,

Fuzuliyning g'azallariga yozilgan tashhiboslar o'zbek adabiyotining durdonalari sanaladi.

Xulosa qilib aytganda, Muhammad Rizo Erniyozbek o'g'li Ogahiy o'zbek mumtoz adabiyotining yirik namoyandasi sifatida nafaqat o'z davrining, balki bugungi kun ma'naviy hayotining ham muhim tayanchlaridan biri hisoblanadi. Uning boy adabiy, tarixiy va ilmiy merosi xalqimizning ma'naviy tafakkuri, axloqiy qarashlari hamda milliy ongini shakllantirishda beqiyos ahamiyat kasb etadi. Ogahiy ijodida ilgari surilgan ilm-ma'rifatga intilish, insonparvarlik, halollik, adolat, xalq manfaatiga xizmat qilish, vatan va tabiatni sevish kabi g'oyalar bugungi globallashuv sharoitida ayniqsa dolzarbdir. Ogahiyning pedagogik qarashlari yosh avlodni komil inson etib tarbiyalashga qaratilgani bilan alohida ahamiyatga ega. U ilm va hunarni inson kamolotining asosiy mezoni deb biladi, inson qadr-qimmatini boylik bilan emas, balki bilim, odob va ezgu amallar bilan o'lchaydi. Shoir ta'lim-tarbiya, axloqiy va nafosat tarbiyasi, til va so'z madaniyatiga alohida e'tibor qaratib, barkamol shaxs tarbiyasining puxta nazariy asoslarini yaratgan. Shuningdek, Ogahiyning tarjimonlik faoliyati Sharq adabiy merosining eng nodir namunalari bilan o'zbek kitobxonini tanishtirib, milliy adabiyotimizni yangi bosqichga olib chiqqan. Uning tarixiy asarlari esa o'z davrining ijtimoiy-siyosiy hayotini haqqoniy yoritib, bugungi tadqiqotchilar uchun qimmatli manba bo'lib xizmat qilmoqda. Xulosa o'rnida aytish mumkinki, Ogahiy merosi, bu faqat o'tmish yodgorligi emas, balki bugungi va kelajak avlod uchun ham ma'naviy yo'lchi yulduzdir. Uni chuqur o'rganish, yoshlar ongiga singdirish va ta'lim-tarbiya jarayonida keng qo'llash orqali ma'naviy yetuk, ongli va vatanparvar avlodni voyaga yetkazish mumkin. Shu bois Ogahiy qoldirgan bebaho merosni asrab-avaylash va targ'ib etish har birimizning muqaddas burchimizdir.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. A.Xojiahmedov. Ogahiy dahosining olmos qirralari. T.:1999.
2. A.Abdug'afurov. Muhammad Rizo Ogahiy. – T.: 1999.
3. Q.Munirov. Xorazmda tarixnavislik. – T.: 2002
4. S.Dolimov. Ogahiyning hayoti va ijodi. – T.: 1963.
5. N.Komilov. Ogahiyning tarjimonlik mahorati. – T.: 1970